



ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЪЗГОРИИ ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ
МИНИСТЕРСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН
ТАДЖИКСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ В Г. ПЕНДЖИКЕНТ



ПАЁМИ ДОНИШКАДА ВЕСТНИК ИНСТИТУТА HERALD OF INSTITUTE

НАШРИ МАХСУС / СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК / SPECIAL EDITION

БО ҲАМКОРӢ БО ТАХРИРИЯТИ МАҚАЛЛАҲОИ ИЛМӢ-
ПАЖӢҲИШИИ “АНВОРИ ИЛМ” ВА “ТАФАККУРИ ТАЪРИХ”

СОВМЕСТНО С РЕДАКЦИЕЙ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ЖУРНАЛОВ «АНВОРИ ИЛМ» И
«ТАФАККУРИ ТАЪРИХ»

~~IN COLLABORATION WITH THE EDITORIAL STAFF OF THE
RESEARCH JOURNALS "ANVORI ILM" AND "TAFAKKURI
TARIKH"~~



**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**



МАВОДИ

анҷумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Вохидов Шодмон Хусейнович

МАТЕРИАЛЫ

научно-практической международной конференции “Актуальные проблемы истории, истории культуры, историографии и источниковедения истории народов Средней Азии” в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент, в честь 60-летия доктора исторических наук, профессора Вохидова Шодмона Хусейновича

MATERIALS

scientific-practical international conference "Actual problems of history, cultural history, historiography and source study of the history of the peoples of Central Asia" at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent, in honor of the 60th anniversary of Doctor of Historical Sciences, Professor Vohidov Shodmon Khuseinovich

Панҷакент - 2021

МАВОДИ анчумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Воҳидов Шодмон Ҳусейнович – Панҷакент, 2021. – 884 с.

Ҳайати таҳрирӣ/Редакционная коллегия:

Ансорӣ М.Қ. – раис, Аханов Б.Ф. (Қазоқистон), Петрусеевич А.А., Эркинов А. С., Пулатов М.Э., (Ўзбекистон), Воҳидов Ш.Х. (муҳаррири масъул), Шарифова Г.Х. (муовини раис ва котиби масъул), Абдуллоев Ш. У., Мақсудов З.О., Ансорӣ М.М., Комилов А., Исроилов С., Худойназаров М., Сирочзода Ф., Салихов Н., Турсунов Н., Ғаффоров Ш. С. Холиқова Р.Э. Эшов Б.(Ўзбекистон)

Муқарризон:

Қурбонов Ш., номзади улуми таърих, профессор (Тоҷикистон)
Турсунов С. доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)
Холиқова Р., доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)

Баъзе фикр ва хулосаҳои дар маҷмӯа омада бо нуқтаи назари таҳририят созгор наомаданаш мумкин аст. Барои дурустии иқтибос, ҳавола ва пайнавиштҳо дараҷаи илмӣ, услуб ва баёни мақолаҳо муаллифҳо масъуланд.

Мнение редколлегии не всегда совпадает с мнением авторов. За достоверность цитат и ссылок, научный уровень, стилистику статей ответственны авторы.

The opinion of the editorial board does not always coincide with the opinion of the authors. Authors are responsible for the reliability of citations and references, the scientific level, and the style of articles.

Дар асоси қарори Шӯрои олимони Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент ба нашр тавсия дода шуд (суратчаласаи № 10 аз 28 декабри соли 2021).

© ДОТП, “Паёми донишкада”, “Анвори илм”,
“Тафаккури таърих” соли 2021.

Воҳада асосий эътибор айвонлар қурулишига аратилган, айвоннинг юқори ва пастки устунлари чиройли нақшинкор қилиб безатилган¹. Айвонларнинг бурчак қисмларида қурилган кичик хоналар нафақат хўжалик юмушлари вазифасини ўтаган балки, айвонларнинг мустақамлигини ҳам таъминлаган.

Бухоро ва Хоразм аҳолиси турар-жойлари қурилиши ўзига хослик ва ўхшашлик жиҳатлари узоқ давр мобайнида бу икки халқ орасида ўзаро ижтимоий–иқтисодий ва маданий алоқоларнинг мавжудлиги таъсирида ривожланган. Кишлоқ хўжалиги тармоқларининг кенгайиши, товар-пул муносабатлари ва иқтисодий алоқалар бошқа мамлакатлар билан йулга қуйилганлиги, хонликлардаги хўжаликларнинг ривожланиши ҳамда марказий ҳокимиятнинг мустаққалиниши шаҳарларнинг юксалишига олиб келди.

Айрим бизгача етиб келган оғзаки малумотларга асосланган ҳолда Хоразм ва Бухоро ҳудудларида турар-жой биноларининг эвалуцион жараёнига тўхталиб ўтсак. Юқорида келтириб ўтилгандек ёғоч, тупроқ уйғунлигига эришгач дастлаб оддий тўртбурчак турар-жой бинолари қурилган. Унда инсонлар билан бир қаторда уларнинг уй ҳайвонлари ҳам яшашган. Ушбу турар-жой биносининг элементлари ташқи деворлар, кириб чиқиш учун эшик, уйнинг марказида олов ёниш учун ўчоги ва унинг тепасида (ёпмасида), яни томда туйник бўган. Маълум вақт ўтгандан кейин инсонларнинг онги турмуш тарзи ривожланиши билан турар-жойларда ҳам ўзгаришлар бўлган. Уларда дастлаб уйнинг ичкарасида қўшимча девор пайдо бўлган. Бу деворнинг вазифаси уйнинг ётадигон ва ўтирадиган ҳудудларни ажратишдан иборат болган. Йиллар ўтгач бу деворларнинг сони ҳам ошиб борган, эндиликда улар нафақат ухлаш ва яшаш балки оила азоларини ва уй ҳайвонларини бир бирларидан ажратиш, овқатланиш, яшаш, дам олиш ҳудудларига ажратилган. Яна бироз маълум вақтдан кейин хоналар таркиби ташкил топди. Қуйидаги Шуни таъкидлаб ўтиш зарурки ҳозирда ҳам ушбу одий тархли уйлардан унумли фойдалинилмоқда. Улардан тоғли ҳудудларда ёки чекка ҳудудларда йилнинг бирор бир мавсумда вақтинчалик ҳаёт кечиришлари учун бунёд этилмоқда.

BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA YUTUQ VA MUOMMOLAR

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro Davlat Universiteti (O'zbekiston)

ANNOTATSIYA: Maqolada Buxoroda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish, ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, to'qimachilik sanoatining mustaqillik yillarida rivojlanishi, to'qimachilik korxonasi xalqaro talablarga mos keladigan trikotaj buyumlarni ishlab chiqarishni haqidagi ma'lumotlar manbalar va matbuot materiallari asosida tahlil etiladi.

В статье анализируются данные о стремительном развитии текстильной и швейной промышленности Бухары, эффективном использовании внутренних и иностранных инвестиций, развитии текстильной промышленности за годы независимости, производстве трикотажных изделий в соответствии с международными стандартами даны.

The article analyzes the data on the rapid development of the textile and garment industry in Bukhara, the effective use of domestic and foreign investment, the development of the

¹ Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–1741 гг. Гладышевым и Муравиным. Изд. Я. В. Изд. Я. В. Ханькова. Спб., 1851. с.73

textile industry during the years of independence, the production of knitted goods in accordance with international standards. are given.

Kalit so'zlar: *Yengil sanoat korxonasi, paxta, pilla, yigiruv-to'quv, pardozlash, gazlama, to'qimachilik, Buxoro haqiqati, loyiha, mutaxassislar*

Ключевые слова: *Предприятие легкой промышленности, хлопчатобумажная, коконная, прядильно-ткацкая, отделочная, газовая, текстильная, Бухарская правда, проект, специалисты*

Key words: *Light industry enterprise, cotton, cocoon, spinning and weaving, finishing, gas, textile, Bukharskaya Pravda, project, specialists*

To'qimachilik sanoati turli xildagi o'simlik tolalari, yung va sun'iy sintetik tolalardan turli gazlamalar, ip va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yengil sanoat tarmog'i. To'qimachilik sanoati tarkibiga to'qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash, ip gazlama, zig'ir, kanop, jun tolasidan gazlama, shoyi, jun gazlama, noto'qima materiallar, to'r to'qish, to'qimachilik attorlik, trikotaj, kigiz namat bosish sohalari kiradi. To'qimachilik sanoati mahsulotlari kiyimbosh va poyabzal ishlab chiqarishda, shuningdek, mebel, mashinasozlik sanoati va boshqalarda ishlatiladi. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati yengil sanoatning yetakchi tarmog'ini tashkil etadi.

Yengil sanoat - shunday sanoat-ki, ya'ni og'ir sanoatdan ko'ra kamroq mablag' talab qiladigan, tadbirkorlikdan ko'ra ko'proq xaridorga mo'ljallangan sanoat turidir. Yengil sanoatning qulayliklari odatda og'ir sanoat bilan bog'liq bo'lgan sanoat turlaridan ko'ra atrof muhitga ta'siri kamroqdir va hududiy qonunlari aholi yashaydigan joy yaqinida ruxsat etilgan. Yagona iqtisodiy tarifda ta'kidlanganidek yengil sanoat bu - shunday ishlab chiqaruvchi faoliyatki, u o'rtacha miqdordagi qisman ishlov beradigan matolarning yuqori darajadagi og'irlik birligiga nisbatan ishlab chiqariladigan mahsulotidir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakat xo'jaligini rivojlantirish uchun olib borilayotgan itisodiy islohotlar, boshqa tarmoqlar qatorida to'qimachilik sanoatiga ham joriy etildi. Chunonchi, 90-yillarning o'rtalaridan tarmoqqa xorijiy sarmoyalar jadal kiritila boshlandi. 1991 yil 18-noyabrda qabul qilingan "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi" qonunga va 1994 yil 16-martda e'lon qilingan "Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risidagi" farmon o'rta va yirik korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira bohlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kenroq jalb qilindi. Respublikaning turli mintaqalarida yangi quvvatlar tashkil etilishi barobarida to'qimachilik korxonalarining katta qismi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirildi. Natijada to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish sur'ati turg'unlashdi va tarmoq hududiy tarkibi takomillashdi.

Mustaqillik yillarida Buxoroda to'qimachilik sanoatni ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o'zgartirish, resurslardan oqilona foydalanish sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

1993-yil ipak gilamlar ishlab chiqaradigan "Afg'on - Buxoro - Samarqand" qo'shma korxonalarini ishga tushirildi. 1994 yilda "Buxoroteks" hissadorlik jamiyati o'z mablag'lari hisobiga, dunyoning eng nufuzli to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi Shvetsariyaning "Riter" firmasining quvvati 2597 yigiruv urchuqli avtomatik tizimini sotib oldi. Shvetsariya Konfederatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida "O'zbekiyengilsanoat" uyushmasiga qarashli "Buxoroteks" aksionerlik jamiyati bilan "Mashiniyenfabrik Riter AG" firmasi o'rtasida uskunalarni montaj qilish va ishga tushirishni 1997 yil aprel oyida tamomlash sharti bilan ip ishlab chiqaruvchi uskunalarni yetkazib berish va montaj qilishga qiymati 5.04 mln Shveysariya franki hisobida kontrakt tuzildi.

“Buxoroteks” hissadorlik jamiyatida Shvetsariyaning “Riter” firmasining avtomatik yigiruv tizimi oʻrnatilishi korxonada yuqori sifatli dunyo andozalari talabiga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish bilan birga barcha mashina va qurilmalar, shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlangan va jarayonlar avtomatik boshqariladi¹.

Riter avtomatik tizimidagi toy paxta titgichning unumdorligi 1-navli tolani qayta ishlashda 1200 kg/soat, 2-navli tolalarda esa 800 kg/soat boʻlib, unda uzunligi 60 millimetrgacha boʻlgan barcha turdagi tolalarni qayta ishlash tavsiya etiladi. Qayta oʻrash avtomatlari Germaniyaning “Shlyafgorst” firmasida ishlab chiqarilgan. Ahamiyatlisi shundaki, ipni qayta oʻrashda ularning uzilish ehtimolini ancha kamaytiradi. “Buxoroteks” hissadorlik jamiyatiga keltirilgan Shveysariyaning “Beninger” firmasi dastgohi toʻqimachilik sanoatidagi piltalab tandalash, Germaniyaning “Nokvo” firmasi dastgohi guruhlab tandalash, “Zuker muller” firmasi dastgohi ohorlash mashinalari ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini yaxshilashni taʼminlaydi.

2007-yilda Buxoro viloyati Qorakoʻl tumanida Qorakoʻlteksning boʻsh yotgan binolaridan birida trikotaj matolaridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Poykent Tekstil” xorij bilan hamkorlikda toʻquvchilik korxonasi tashkil etildi. Xomashyodan koʻra tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonasi uchun koʻproq foyda keltirishini hisobga olgan holda tashkil etildi. Qorakoʻlteks AQSh bilan hamkorlikda xomashyo tayyorlash bilan bir qatorda 2007 yil halqaro moliya korparatsiyasining 1,5 million AQSh dollari miqdoridagi sarmoyasi “Asaka” davlat aksiyadorlik tijorat banki orqali qayta moliyalashtirilib jalb qilinishi hisobiga eng zamonaviy, yiliga 1200 tonnagacha mato toʻqish va boʻyash dastgohi va uskunalari bilan jihozlangan yirik sex ishga tushirildi.² Bu toʻqimachilik korxonasi xalqaro talablarga mos keladigan trikotaj buyumlarni ishlab chiqarishni samarali yoʻlga qoʻya boshlagan. 2007 yil “Poykent Tekstil” korxonasi direktori Qayum Hamdamovning takidlashicha, bundan bir necha yil ilgari “Qorakoʻlteks” moliyaviy muammolar sababli ancha murakkab ahvolga tushib qolgan. Aylanma mablagʻi yetarli boʻlmasligi sababli toʻqimachilik korxonasining oʻzlashtirish darajasi pasayadi. Paxta tolasining yuqori resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek sifatli, eksportga yoʻnaltirilgan, xalqaro standartlarga javob beradigan toʻqimachilik sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori koʻplab toʻqimachilik korxonalariga juda katta madad boʻldi³. “Poykent Tekstil”ga Respublika qarori bilan bosqichma-bosqich qoplash sharti bilan kredit berildi. 2009 yil mahsulot ishlab chiqarish 105 foizga etkazildi. 2010 yilda MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarga 1,5 million AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qildi. Biznes rejasida loyiha boʻyicha 55 foizdan 70 foizga oʻzlashtirish rejaga belgilab qoʻyilgan. 2007 yilda davlatdan olgan kreditni 2017 yilga qadar oʻzaytirilgan holda shartnoma tuzilgan. Korxonada 400 dan ortiq yigiruvchilar, toʻquvchilar, chilangaru-ustalar mehnat qilmoqda.

“Textiles Spektrum Kolors” (TSK) masʼuliyati cheklangan jamiyat boʻlib oʻzbek-ingliz toʻqimachilik qoʻshma korxonasi hisoblanadi. TSK qoʻshma korxonasi “Romitan – Teks” ishlab chiqarish maydonlari bazasi asosida tashkil etilgan. “Textiles Spektrum Kolors” masʼuliyati cheklangan jamiyat 2007 yil 3 dekabrda tashkil etilgan. Oʻz ishlab chiqarish faoliyatini esa 2008 yil may oyidan boshladi.

“Textiles Spektrum Kolors” toʻliq yopiq siklli korxonasi boʻlib hisoblanadi. Chunki bu korxonasi ishlab chiqarish faoliyati paxta tolasidan ip yigirishdan boshlanib, mato toʻqish va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan yakunlanadi. Hozirgi vaqtda TSK toʻqimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi boʻyicha viloyatda yetakchi oʻrinda turadi. 2007-2008 yillarda Buxoro viloyatida 13 ta bunday xususiy va masʼuliyati cheklangan ishlab chiqarish

¹ Жалилов Ж. Ф. “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил, 3-бет.

² Yodgorov E. Qorakoʻteks qad rostlamoqda. // Buxoronoma, 2010, 15-sentyabr

³ 2007-yil noyabr // PQ -733-son

qo'shma korxonalari faoliyat yuritgan. "Textiles Spektrum Kolors" O'zbekistondagi yirik ilg'or to'qimachilik korxonalarining o'nligi qatorida turgan. Yigirilgan ip ishlab chiqarish korxonaning 70% ish faoliyatini tashkil etadi. Korxonada mahsulotni sifat darajasini, yutuqlarini TSK MCHJ tomonidan qo'lga kiritilgan turli sifat sertifikatlari orqali ham yaqqol ko'rish mumkin. Hozirgi paytda "Textiles Spektrum Kolors" mahsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga o'sib bormoqda. Buni turli korxonalarining ushbu korxonaga bilan tuzgan shartnomalari asosida ham ko'rish mumkin.

"Textiles Spektrum Kolors" MCHJ o'z mahsulotlarini quyidagi chet ellarga talab asosida eksport qiladi: Rossiya, Qozog'iston, Armaniston, Ukraina, Xitoy, Polsha.

O'zbekiston va Qozog'iston mudofaa vazirligi hamda Qozog'iston temir yo'llari "Textiles Spektrum Kolors" asosiy va doimiy buyurtmachilari bo'lib hisoblanadi.

"Textiles Spektrum Kolors" o'z ish faoliyati mobaynida 4 marta Buxoro viloyati, 3 marta Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rgazmalarda faol ishtirok etdi va turli faxriy yorliqlarni qo'lga kiritgan.

"Textiles Spektrum Kolors" jamoasi tomonidan doimiy ravishda ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, tuzilishi, ornamentlari rivojlantirilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti rivojlanib, mahsulotga bo'lgan talab kundan kunga rivojlanmoqda. Materiallari yangi zamon talablariga mos bo'lib iste'molchilar talablari darajasida. Hozirgi vaqtda "Textiles Spektrum Kolors"da tayyorlanayotgan to'qimachilik matolardan tikuv buyumlari ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yilgan. Korxonadagi tikuv sexida turli choyshablar to'plami, sochiqlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari buyurtma asosida turli xildagi chixol-qoplar, erkaklar ko'ylagi va boshqa turdagi kiyimlar tikiladi¹. Tayyorlov sexida matolar to'shalib, diskli bichish mashinalarda bichilib tikuv sexiga yuboriladi. Oqimlarda yarim mahsulotlar tikib yig'iladi va zamonaviy o'ramlarda o'raladi. Korxonada ishchi va muhandislarning shiori yuqori sifatli mahsulotlari bilan Jahonni nufuzli davlatlari bilan hamkorlikni davom ettirish.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi hamda 2011 yil 30 martdagi "To'qimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi PQ-1512-son qarorlari mamlakatimiz jumladan, Buxoroda to'qimachilik sanoat tarmog'ida juda keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Buxoro viloyatida loyiha qiymati 2,8 mln. AQSh dollarlik "Buxoro Energo tekstil" korxonasi ishga to'shirildi.

"Buxoro brilliant silk" O'zbekiston - Xitoy qo'shma korxonasi viloyatda aholi farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan. 2010 yilda tashkil etilgan, zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonada pilla qayta ishlanib, turli o'lcham, ko'rinish va rangdagi matolar tayyorlanmoqda. Bunda buyurtmachi taklifi va bozor talabi asosida ish tutilmoqda. Hozir bu yerda "Bahor", "Yomg'ir", "Yulduzlar" kabi o'nlab ko'rinishdagi matolar ishlab chiqarilmoqda. Matoga bosilgan gullarning o'ziga xosligi shundaki, ularning rangi o'chmaydi, suv va quyosh nuriga chidamli. Ipak matolar ekologik toza, har qanday iqlimga mos. Mahsulot buyurtma asosida Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridagi xaridorlarga etkazib berilmoqda. Tayyor mahsulotni eksport qilish bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib boriladi. "Buxoro brilliant silk" qo'shma korxonasi ipak tolalari Eron, Vetnam, Turkiya, Hindistonga qariyb 2,5 million dollarga teng mahsulot eksport qilinadi.

"O'zbekengilsanoat" akstiyadorlik jamiyati tomonidan sobiq "Buxoroteks" AJ negizida tashkil etiladigan "Indorama Indast LTD" O'zbekiston - Singapur qo'shma korxonasi o'z loyihasi bilan ishlamoqda.

¹ Bankrot korxonaga qudratli MCHJ ga aylantirildi. //Buxoronoma. 2019 yil, 17- aprel

Yerdan unumli foydalanish, viloyatda agrar tarmoqni yanada rivojlantirishda tuzorlar barpo etish bo'yicha yangi loyihalar ishlab chiqilgan¹.

Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatgan "O'zbekengilsanoat" AJ tasarrufidagi korxonalar respublika miqyosida engil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish holati viloyat bo'yicha to'qimachilik va engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2016 yilda 2010 yilga nisbatan 321.4 foizga o'sishi kuzatildi. Yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyatda to'qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi yil sayin kamayib borayotganligiga guvoh bo'lamiz. Buning asosiy sababi viloyatda boshqa tarmoqlar ham yengil sanoatdan ham jadal rivojlanib borganligida.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyotini dunyo mamlakatlari ichida ustuvor mavqeiga ega bo'lishini, jahon bozorlaridagi global raqobatda erkin harakatlana olishi va ishlab chiqarishni jahon bozorini hisobga olgan holda tashkil etishga qaratilgan. Mamlakat hududlarida yengil sanoat sohalarini rivojlantirish, ularning hudud iqtisodidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, aholi talab va ehtiyojlarini milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari bilan qondirish, ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish kabi vazifalarni ado etish dolzarbliigi yanada oshmoqda².

2017 yil 14-dekabrda qabul qilingan "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga muvofiq, O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi tashkil etildi. Bunda davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalarini o'z ichiga olgan "O'zbekengilsanoat" AJ tugatildi va to'qimachilik sanoati korxonalari "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tuzildi.³ Tekstil kompaniyalari ilk bor paxtani to'g'ridan - to'g'ri fermerlardan sotib oladigan bo'ldi. "O'zbekengilsanoat" kompaniyasi o'rnini "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi egalladi. Mahalliy to'qimachilik sanoati korxonalari tomonidan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan paxta xom ashyosiga to'g'ridan-to'g'ri buyurtma berish tizimi joriy etildi. Paxta - to'qimachilik klasterlari tashkil etildi.

Ishlab chiqarish klasteri innovastion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichidir. O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit yaratilib, chet ellik sarmoyadorlar huquqlarining qonuniy kafolati mustahkamlangani, ularga qo'shimcha imtiyozlar berilayotgani ishbilarmon doiralar faoliyatini rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda.

Keyingi yillarda olib borilayotgan ana shunday oqilona islohotlar samarasi o'laroq, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlanayapti, bu, o'z navbatida, xorijlik investorlarning qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Natijada dunyoga mashhur ko'plab yirik kompaniyalarning faoliyati kengayib, iqtisodiyotning turli sohalarida samarali ish olib borilmoqda.

Buxoro shahrida ishga tushirilgan "Buxoro kotton tekstil" qo'shma korxonasi ana shunday ilg'or ishlab chiqarish ob'ektlaridan biridir. E'tiborlisi, investorlar "Paraglide Ltd" (Buyuk Britaniya) va "Kompaniya Petromaruz" (Rossiya) kompaniyalari mazkur loyiha doirasida tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladigan paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etish yuzasidan amaliy tadbirlarga kirishgan⁴. Buxoro shahrida 2017 yil 29 mayda "Buxoro kotton tekstil" korxonasi tashkil etildi. 2019 yil 75 mln AQSh dollarida investetsiya o'zlashtirilgan. 30 mln 454 ming AQSh dollari "O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining", 4153 ming AQSh dollari O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar milliy bankining imtiyozli kreditlari tashkil etadi.

¹ Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati.-T., 2000. 43-bet

² Jalolov J.J., Axmedov I.A., Hotamov I.S., Azlarova D.A. "Marketing tadqiqotlari". O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2012

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14-dekabrda PF-5285-son farmoni

⁴ Rahmatov M. Ishlab chiqarish klasteri innovastion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichidir //Xalq so'zi 2017yil 28 mart

AQSh, Belgiya, Fransiya, Germaniya va jahonning etakchi korxonalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy asbob-uskunalari keltirilgan. Yiliga 10 ming tonna paxta to'qimachilik korxonasi sexlariga bosqichma-bosqich ishga tushuriladi.

2019 yil aprel oyida ip-kalava ishlab chiqarish bo'limi tomonidan Portugaliya, Polsha, Shvetsiyaga 5 ming AQSh dollariga teng ip-kalava yetkazib berilgan. Eksport salohiyati oshirilgan. 954 nafar ishchi va mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Yiliga 24 turdagi ip- kalava ishlab chiqadi. Buyuk Britaniya qo'ashma korxonasi asosida tashkil etilgan "Buxoro kotton tekstil" sanoat to'qimachilik va ishlab chiqarish korxonasi Buxoro viloyatida ortiqcha ish urinlari tashkil etish uchun sanoat tarmog'ini kengaytirmoqda. 1000 kishining bandligi ta'minlanishi ko'zda tutilgan korxonada 6,5 ming tonna ip-kalava, 10 ming kvadrat metr jinsi mato va 1,5 million dona tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Bugungi kunda Buxoro to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarini joriy etish, yuqori zamonaviy uskunalardan samarali foydalanish, to'qimachilik sanoat korxonalarida yuqori mehnat unumdorligini, sanoat ishlab chiqarishining ko'payishini ta'minlaydi va yangi ish o'rinlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4957-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги фармони. <http://strategy.regulation.gov.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2010 йил 15 декабрдаги "2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида"ги ПҚ-1442 – сонли қарори. www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2011 йил 30 мартдаги "Тўқимачилик саноати корхоналарини жадал ривожлантиришни рағбатлантириш бўйича қўшимча чоралар тўғрисида"ги ПҚ-1512 - сонли қарори. www.lex.uz
4. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14-dekabrdagi qilingan "То'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son farmoni
5. Jalolov J.J., Axmedov I.A., Hotamov I.S., Azlarova D.A. Marketing tadqiqotlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2012.
6. www.buxstat.uz
7. Rahmatov M. Ishlab chiqarish klasteri innovastion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichidir //Xalq so'zi 2017yil 28 mart
8. Bankrot korxonaga qudratli MSNJ ga aylantirildi. //Buxoronoma 2019 yil, 17- aprel
9. Жалилов Ж. Ғ. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар //Илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил, 3-бет.
10. Erkin Yodgorov. Qorako'teks qad rostlamoqda.//Buxoronoma, 2010, 15-sentyabr

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЁМОВ МНМОТЕХНИКИ В РАЗВИТИИ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ

М.А. Утамуродова,
преподаватель кафедры педагогики - психологии, Таджикский педагогический институт в г. Пенджикенте

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы использования приёмов мнемотехники в развитии монологической речи студентов. Особое внимание уделяется

**МАСОҒЛИ МУБРАМИ ТАЪРИХ, ТАЪРИХИ МАДАНИЯТ, ТАЪРИХНИГОРҲИ ВА МАНБАЪШИНОСИИ ТАЪРИХИ ХАЛҚҲОИ
ОСИЁИ МИЁНА/ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИИ, ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ, ИСТОРИОГРАФИИ И
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ ИСТОРИИ НАРОДОВСРЕДНЕЙ АЗИИ/ TOPICAL PROBLEMS OF THE HISTORY, CULTURAL
HISTORY, HISTORIOGRAPHY AND SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA**

| | | | |
|------|--|--|------------|
| 174. | Убайдуллоев Аҳрорҷон Қаюмов Саидмурод | ТАРБИЯ ЧИСТ? | 683 |
| 175. | Убайдуллоев Аҳрорҷон, Норцигитов Равшанбек, | ИСТИҚЛОЛИЯТИ ДАВЛАТӢ ВА ПЕШВОИ ВАҲДАТОФАР | 687 |
| 176. | Убайдуллоев Аҳрорҷон, Қаюмов Саидмурод, | НАҚШИ БУЗУРГИ ПЕШВОИ МИЛЛАТ ДАР РУШДИ МАОРИФИ КИШВАР | 689 |
| 177. | Убайдуллоев Аҳрорҷон, | НИЗОМИ САЛОҲИЯТНОКИИ ТАЪЛИМ ВА ДУРНАМОИ ОН | 694 |
| 178. | Умаров Бахтишод | БУҲОРО ВОҲАСИ ТУРАР- ЖОЙЛАРИ | 699 |
| 179. | Utayeva Feruza Xolmamatovna | BUKHORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA YUTUQ VA MUOMMOLAR | 702 |
| 180. | Утамуродова М.А., | ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЁМОВ МНЕМОТЕХНИКИ В РАЗВИТИИ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ | 707 |
| 181. | Утемуратов Махмут Ажимуратович, Қахрамонова Жансая Бегали қизи, | АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОЙ ПСИХОЛОГИИ И ПРАВОВОЙ ИДЕОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОЕ ВРЕМЯ | 712 |
| 182. | Ҳайитбоева М.А., Собитов Р.Ш. | ИСЛОМ ВА ТЕРРОР БО ҲАМ БЕГОНААНД | 715 |
| 183. | Ҳакимова С. | УСУЛҲОИ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ДАР МАКТАБҲОИ НИЗОМИЯ | 717 |
| 184. | Хамраева Танзиля Равильевна, | ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА (на примере города Бухары) | 723 |
| 185. | Ҳасанова М.И. | МАРОСИМИ ТҲҲИ АРҲСИ ДАР ХУҶАНД | 727 |
| 186. | Khasanova Khalida Fattayevna, | EXAMPLES OF IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY CONNECTIONS | 730 |
| 187. | Холиқзода Абдухолиқ | САҲМИ ПЕШВОИ МИЛЛАТ ДАР БАЛАНД БАРДОШТАНИ МАҚОМИ АБӲАБДУЛЛОҲИ РӲДАКӢ | 734 |
| 188. | Холиқова Рахбар Эргашевна | МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҲРИКЕНГЛИК- ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛ | 736 |
| 189. | Хамдамов Ислон Акрамович | ПРОИЗВЕДЕНИЕ МИРЗО УЛУГБЕКА «ЗИДЖ» КАК ОСНОВНОЙ АСТРОНОМИЧЕСКИЙ СПРАВОЧНИК | 741 |
| 190. | Холиқова Рахбар | САМИМИЯТ САРЧАШМАСИДАН | 745 |